

IS GAZI VA UNING OLDINI OLIISHDA XORIJ TAJRIBASI

Jumaev Sayfiddin Qodirovich.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kafedra boshlig'i

Ahadqulov Qasriddin Valimurod o'g'li

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 5 – Batalyon kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14895186>

Annotatsiya. Mazkur maqolada is gazi va uning oldini olishda xorij tajribasi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida is gazining zararli oqibatlari va undan kelib chiqadigan noxush holatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqolada asosli fikr va mulohazalar keltirib, xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: is gazi, kuz-qish mavsumi, isitish pechlaridan noto'g'ri foydalanish, loqaydlik.

GREENHOUSE GAS AND FOREIGN EXPERIENCE IN ITS PREVENTION

Abstract. This article discusses greenhouse gas and foreign experience in its prevention. Also, the article specifically addresses the harmful effects of greenhouse gas and the unpleasant situations arising from it. The article presents reasonable ideas and considerations, and provides conclusions and suggestions.

Keywords: greenhouse gas, autumn-winter season, improper use of heating stoves, indifference.

ОКСИД УГЛЕРОДА И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотация. В статье рассматривается оксид углерода и зарубежный опыт его профилактики. В статье также подробно рассматривается вредное воздействие угарного газа и неприятные ситуации, которые возникают в результате этого. В статье представлены обоснованные мнения и соображения, а также выводы и предложения.

Ключевые слова: угарный газ, осенне-зимний сезон, неправильное использование обогревателей, равнодушие.

Darhaqiqat, respublikamizda kuz-qish mavsumida isitish pechlaridan noto'g'ri foydalanish va loqaydlik sabablariga ko'ra aholi xonadonlarida is gazidan zaharlanish hamda gaz-havo aralashmasining chaqnashi holatlari ro'y berib, insonlarning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazilayotganligi, hatto eng achinarlisi, o'lim bilan tugayotgan baxtsiz hodisalar sodir bo'layotganligi o'zining taqdirini shu yurt taqdiri bilan bog'lagan har qanday insonni tashvishga soladi.

Is gazi – yonuvchi modda va materiallar (gaz, yog‘och, ko‘mir kabilar)ning chala yonishi natijasida hosil bo‘ladigan rangsiz va hidsiz gaz hamda zaharli modda hisoblanadi.



Aynan, is gazining ajralishiga sabablar – nostandart va nosoz gaz asboblardan hamda isitish pechlaridan foydalanish, talabga javob bermaydigan dudburonlarni o‘rnatish yoki ularni noto‘g‘ri o‘rnatish, mavjudlarini o‘z vaqtida tozalamaslik, gazning yetarli miqdorda havo bilan aralashmasligi kabilar tufayli sodir bo‘ladi.

Buyuk Britaniya davlatida bu ofatning dastidan yiliga salkam 800 nafar, Amerika Qo‘shma Shtatlarida 500 nafarga yaqin, Rossiyada 350 dan ortiq odamlar bevaqt nobud bo‘layotganligi har bir inson qalbini, jamiyat a‘zosini larzaga keltiradi, mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlaridan yangidan-yangi mas‘uliyatli vazifalarni qo‘yadi.

Bu borada o‘tgan yil davomida respublikamizda is gazidan 50 ga yaqin inson bevaqt vafot etganliklari barchamizni tashvishga soladi, albatta.

Hozirgi vaqtda qurilish va pardoqlash materiallari, uy-joy jihozlari, idish-tovoqlar, qurilmalar, detallar, matolar va boshqa ashyolar aksariyat hollarda polimer materiallardan tayyorlanmoqda. Bularning yong‘inlarda yonishi natijasida odam organizmiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi zaharli moddalar ajralib chiqadi va aksariyat hollarda ayanchli holatlarni keltirib chiqaradi.

Bu yo‘nalishda rivojlangan ayrim davlatlarning tajribasini o‘rganishlar jarayonida is gazidan zaharlanishning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi aniqlandi. Jumladan:

AQShning Nyu-York, Kolorado, Kaliforniya shtatlarida is gazidan zaharlanishning oldini olish bo‘yicha maxsus qonunlar qabul qilingan.

Birgina Kaliforniya shtatining 2010 yilda is gazidan zaharlanishni oldini olish to'g'risida qabul qilingan qonun talablariga ko'ra, gaz va isitish moslamalari mavjud bo'lgan har bir xonada is gazini aniqlovchi detektor (gazonalizator)larni o'rnatish majburiy ekanligi belgilangan.

Ayni paytda, barcha turdagi binolarda is gazini aniqlovchi detektorlarni o'rnatish bo'yicha tashviqot ishlari ham Buyuk Britaniya davlatida muntazam olib borilayotganligi kuzatildi.

Bundan tashqari, AQSh va Kanada davlatlarida markaziy isitish tizimidan voz kechilib, ko'p qavatli uylarning yerto'lalarida butun uyni isitib beradigan boylerlar (suvni isitadigan qurilmalar) o'rnatilmoqda.

Yevropada ham individual isitish moslamasi – generatorlarni o'rnatish keng rivojlangan.

Mazkur amaliyot yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan binolarda qo'llanilmoqda. Jumladan, London shahridagi yakka tartibdagi va ko'p qavatli uylarning har bir xonadonida avtomatlashtirilgan individual isitish tizimi generatorlari, majburiy ravishda tizim o'rnatilgan xonaga gaz sizib chiqishini xabarlovchi (gazoanalizator) bo'lishi sharti bilan o'rnatilmoqda.

Janubiy Koreyada esa suyultirilgan uglevodod gaz ballonlarini baland qavatli turar joy binolarining birinchi qavatida yong'in qarshi bo'lgan devorlarning orqa tomonida o'rnatish joriy etilgan.

Ayrim davlatlarda esa besh qavatgacha bo'lgan uylarda ham gaz sizib chiqishini xabarlovchi (gazoanalizator) bo'lishi sharti bilan individual isitish tizimi generatorlari tajriba sifatida o'rnatilmoqda.

Ushbu tizim boshqa isitish tizimlariga qaraganda xavfsizlik jihatdan ancha yuqoriligi amalda isbotlanmoqda.

Mamlakatimizda ham qurilayotgan baland qavatli arzonlashtirilgan turar joy binolarida ushbu amaliyot keng qo'llanilmoqda, ya'ni ikki konturli isitish qozonlari o'rnatilmoqda.

Albatta, yuqorida qayd etilgan davlatlardagi mavjud ijobiy tajribalarni o'rganish asosida bosqichma-bosqich tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari is gazidan zaharlanishning oldini olishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash vaqti yetib keldi. Bu borada nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, balki ijtimoiy tarmoqlar va mobil aloqa operatorlari imkoniyatidan foydalanish ham ancha samara beradi.

O'rganishlar natijalariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda is gazidan zaharlanishni oldini olishda foydalaniladigan mobil ilova (telefon dasturlari) tushunchalarining milliy ko'rinishi, talqini mavjud emas

Ijtimoiy tarmoqlarda, shu jumladan “Youtube», “Facebook», “Telegram», “Play Market» kabilarda isitish qurilmalaridan foydalanishni o‘rgatuvchi o‘zbek tilidagi videoroliklar, animatsion multfilm va infografikalar deyarli yo‘q.

Shuning uchun Rossiya, AQSh, Italiya, Janubiy Koreya kabi davlatlardagi ixtisoslashgan veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda joylashgan isitish qurilmalaridan foydalanishda qo‘llaniladigan materiallarning aksariyati ingliz tilida tayyorlanganligiga guvoh bo‘ldik, bunday materiallarni (video rolik, multfilm va infografika ko‘rinishlarini) o‘zimizda davlat tilida ham tayyorlash lozim.